**UDK: 809.1+612.821+152.33** **DOI: 10.56292/SJFSU/vol28_iss2/a63**

# BADIIY ASARDA PSIXOLOGIK (RUHIY) TAHLIL PRINTSIPLARI VA USULLARI

# ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО (ДУХОВНОГО) АНАЛИЗА В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

# PRINCIPLES AND METHODS OF PSYCHOLOGICAL (SPIRITUAL) ANALYSIS IN FICTION LITERATURE

**Akhmadjonova Okilakhon Abdumalikovna[1]**

**[1]Akhmadjonova Okilakhon Abdumalikovna** − *Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi*

***Annotatsiya***

*Bugungi kunda turli janrlar, ijodiy metodlar, uslubiy yo‘nalishlar bilan bog‘liq qonuniyatlar, adabiyot taraqqiyotining turli bosqichidagi imkoniyatlar keng tadqiq etilmoqda. XX asr o‘zbek adabiyotida yozuvchilarimiz goh oshkora, goh ishoraviy tarzda inson ichki dunyosini ochishning yangi-yangi qirralarini kashf eta boshladilar. Hayot va adabiyotning bosh qahramoni inson ekan, uni o‘quvchiga yaqin qilish, surati va siyratini turli qiyofada aks ettirish maqsadida qahramonning ichki dunyosida ro‘y berayotgan kechinmalari, his-tuyg‘ularini ifodalash, voqea-hodisalar va narsa-buyumlarga munosabatini bildirish, xarakter yaratishda yozuvchi oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Maqolada jahon va o‘zbek adabiyotida psixologik tahlil metodi, uning printsiplari va usullari haqida ma’lumot berilgan.*

***Аннотация***

*Сегодня широко изучаются различные жанры, закономерности, связанные с творческими методами, методологическими направлениями, возможностями на разных этапах развития литературы. В узбекской литературе 20-го века наши писатели начали прозрачно и образно исследовать новые аспекты внутреннего мира человека.Поскольку главным героем жизни и литературы является человек, это одна из важных задач, стоящих перед писателем при создании персонажа, выражении его чувств, выражении его отношения к событиям и предметам, выражении его переживаний во внутреннем мире героя, чтобы приблизить его к читателю, отражая его образ и сирену в разных образах. В статье представлена информация о методе психологического анализа в мировой и узбекской литературе, его распечатках и методах*

***Abstract***

*Today, various genres, laws related to creative methods, methodological directions, opportunities at different stages of development of literature are widely studied. In Uzbek literature of the 20th century, our writers began to explore new aspects of the human inner world in a transparent and figurative way. Since the main hero of life and literature is a person, it is one of the important tasks that the writer faces in creating a character, expressing his feelings, expressing his attitude to events and objects, expressing his experiences in the inner world of the hero in order to bring him closer to the reader, reflecting his image and siren in different images. The article provides information about the method of psychological analysis, its printouts and methods in the world and Uzbek literature.*

***Kalit so‘zlar:*** *Badiiy asar, muallif, xarakter, psixologiya, metod, ruhiyat, xarakter, obraz, o‘quvchi, adabiyot, tadqiqot, realizm, qobiliyat, uslub.*

***Ключевые слова:*** *Художественное произведение, Автор, персонаж, психология, метод, дух, характер, образ, читатель, литература, исследование, реализм, способности, стиль.*

***Keywords:*** *Artistic work, Author, character, psychology, method, spirit, character, image, reader, literature, research, realism, ability, style.*

**KIRISH.** XX asr faqat fan-texnika asri bo‘libgina qolmay uning oxirgi choragi ayniqsa, o‘zbek adabiyoti uchun inson ruhiyati, “qalb dialektikasi”ni badiiy tadqiq qilish, uning ichki va tashqi holatini sintezlashgan tarzda ifodalash asri ham bo‘lib qoldi.

Psixologiya, ruhiyat, ichki dunyo, ruhiy kechinma kabi so‘zlar bir-biriga yaqin ma’noni anglatadigan sinonim so‘zlar sifatida tushuniladi. CHunki bu so‘zlarning barchasi insonning sub’ektiv dunyosi – idrok, xotira, tafakkur, xayol, his-tuyg‘u va uning qobiliyati, iste’dodi, temperamenti, xarakteriga xos ruhiy hodisalarni ifodalaydi.

“Badiiy adabiyotni ruhiy faoliyat turlaridan biri deb atashga imkon beradigan narsa shuki, ijodkor o‘zining “faoliyati” yo‘naltirilgan predmetni o‘z ongida o‘zgartiradi va badiiy obrazda aks ettiradi”[1.48]. Bunda asosiy masala asar mazmunining sub’ektiv tomoni bo‘lib, adabiyot va san’atning tarixiy taraqqiyoti keyingi o‘rinlarda turadi.

## ASOSIY QISM. (ADABIYoTLAR TAHLILI VA METODLAR)

Realizm oqimi yuzaga kelgach, adabiyotda inson ichki olamini tadqiq etish, qahramonning tashqi faoliyatini ichki, psixologik jihatdan ushbu oqimning bosh xususiyatiga aylandi. XX asrning so‘nggi choragiga kelib, realizm asosida o‘zbek adabiyotiga ong oqimi, insonning ruhiy olamini butun murakkabligi bilan aks ettirish asosiga qurilgan ko‘plab asarlar paydo bo‘ldi. Ulardagi hayotiy haqiqatga yaqinlik ushbu davr nasrining o‘ziga xosligini belgilaydi. Adabiy muhitning bu jarayonlarini esa adabiyotshunoslikda bir qancha metod va tamoyillar, ayniqsa psixologik metod o‘rganadi.

Jahon adabiyotida psixologik tahlil metodi XIX asr 70-80-yillarida G‘arbiy Yevropa va Rossiya ilmiy muhitida yuzaga keldi. Xususan, frantsuz olimi Emil Ennekin adabiy tanqidning estopsixologik tamoyillarini ilgari suradi. U badiiy matn ma’nosini idrok etishda o‘quvchi psixologik jihatdan kitoblari yoqqan yozuvchiga o‘xshash bo‘ladi, degan g‘oyani ilgari suradi.

Estopsixologik tadqiqotning birinchi vazifasi asarning tarkibiy qismlarini – u nimani ifodalaydi va ifoda etish usuli qanday, kabi savollarni tahlil qilishdir. Ikkinchisi, ilmiy psixologiya asosida psixofiziologik holatning ko‘rinishi bo‘lib, badiiy asardan olingan ma’lumotlarning qay darajada ifodalanganligini tushuntiradi. Va yana tadqiqotchi har qanday asarni yozuvchi psixologiyasining ifodasi deb biladi.

Enneken yozuvchi va uning muxlislari o‘rtasidagi munosabatlar haqida gapirar ekan, o‘quvchi yashaydigan sharoit – muhitni va adabiy hodisalar genezisi masalalarini e’tiborsiz qoldiradi[10]. Zero, antik davr yoki o‘rta asrlar davri kishisi ongidagi olam va odam haqidagi bilimlar orasidagi farq turlichadir. Adabiyotshunos olim Q.Yo‘ldoshev aytganidek, “Chinakam badiiy matn o‘z umri bilan yashaydi. U matnni idrok etgan avlodning saviyasi, didi, intelektual darajasiga muvofiq ravishda turli davrlarda turlicha qabul etiladi”[2.347].

Adabiyotshunoslikda XIX asr oxiri, XX asr boshlarida “psixoanaliz” nazariyasiga asos solgan avstriyalik olim Zigmunt Freyd qarashlariga ham e’tibor ancha kuchli. “Psixoanaliz” “psixologik analiz”ning qisqartmasi emas. “Psixologik analiz” adabiyotshunoslikka xos termin bo‘lib, tadqiqotchining badiiy asarni psixologik metod asosida tadqiq etishidir. Psixoanaliz nisbatan keng tushuncha hisoblanib, XX asrning 1-choragigacha bo‘lgan inson va uning ruhiyati haqidagi qat’iy qarashlarni rad etdi, shaxs ruhiy olamining aqlga sig‘maydigan murakkab jihatlarini farqlab berdi. Xossatan, ongli jarayonlar ortida yashirin faoliyat – ong osti psixologiyasi mavjudligini kashf etdi.

“Inson faoliyatining Freydgacha bo‘lgan psixologik talqinlarida tadqiqot obyekti vazifasini asosan, ong va u bilan bog‘liq jarayonlar bajarar edi. Freyd esa mana shu ongli jarayonlar ortida yashirin faoliyat mavjudligini kashf etdi va uni ong osti psixologiyasi, deb nomlanadi”[3]

“Psixoanaliz” meditsinaning psixatriya va psixologiya sohalarida qo‘llaniladigan yangi yo‘nalish, alohida termin hisoblanadi. Unga ko‘ra, insonning xatti –harakatlari va intilishlari aql va ongdan ko‘ra, irratsional – ya’ni aqldan tashqari ong ostida ro‘y beradigan xoxish-istaklar bilan ko‘proq bog‘langandir. Bir qancha olim faylasuflar tomonidan Freydizm nazariyasi fanning turli sohalari – falsafa, siyosat, yuridik, san’at, ta’lim yo‘nalishlariga tatbiq etishga qaratilgan. Shuningdek, tibbiyotda ruhiy bemorlarni psixoanaliz usulida muolaja qilish bilan ham shug‘ullanadi.

Psixoanaliz meditsina (psixatriya)da insonning ruhiy holatlarini tekshiradi, ko‘pincha yozuvchilar psixoanaliz yutuqlaridan xabardor bo‘lib, ataylab o‘z asarlarida ba’zi ruhiy hodisalarni tasvirlaydilar. Ijodkor badiiy obraz yaratar ekan, uning xarakterini shakllantirishda huddi psixoanalitikka o‘xshab harakatlanadi.

**MUHOKAMA.** Badiiy asar muallifning ong osti istaklari, ijtimoiy-ma’naviy tafakkuri, estetik qarashlari asosiga yo‘g‘rilgan, ammo hayotda reallasha olmagan xohishlarining ko‘rinishidir. Shu jihatdan badiiy asar tahlilida psixoanalitik tahlil metodlaridan foydalanish asar mohiyatini aniqlash, tahlilning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Z.Freyd, K.Yung, E.Fromm, A.Adler va J.Lakan kabi mashhur psixoanalitiklar nazariyasida bevosita adabiy asarlar tahlili o‘laroq yuzaga kelgan tadqiqotlar shuni isbotlaydi. Adabiyotning ham psixoanaliz kabi yagona talqin ob’ekti - bu inson. Adabiyot ham psixoanaliz kabi inson ruhiyati va jismini, ongli va ongsiz shuurini turlicha tadqiq etish xususiyatiga ega. “Psixoanalitiklar Sofoklning “Shoh Edip”, V.SHekspirning “Hamlet”, M.F.Dotoevskiyning “Aka-uka Karamazovlar” asarlarida “edipcha kompleks”ga aloqadorlikda padarkush-otasini o‘ldiruvchilar motivini ko‘radilar”[4.181].

Zigmund Freydning o‘zi ham bir qancha maqolalarida psixoanalizni adabiyotga, san’atga tadbiq etish namunalarini ko‘rsatib beradi. Freyd nazariyasining ijodiy jarayonga, yozuvchi “men”iga tegishli ekanini ta’kidlaydi.

Rus adabiyotshunosligi ko‘p yillik ilmiy tarixga ega bo‘lganligi uchun psixologik tahlil to‘g‘risidagi tadqiqotlar ko‘plab yaratilgan va bu borada katta boy tajribaga egadir. Masalan, A.Potebnya adabiy-ilmiy talqin hamda badiiy asarni qabul qilish masalasini psixologik yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri, deb hisoblaydi. Darhaqiqat, tafakkur qilish tezkor jarayondir. Fikrlashning eng ko‘p uchraydigan turi faraz qilishdan, farazlarni tekshirib ko‘rishdan iborat. O‘quvchi badiiy asarni o‘qir ekan, undagi voqealar bayoni huddi kinolentadek uning ko‘z o‘ngidan o‘tadi, ya’ni avval tafakkur qiladi, so‘ngra o‘z dunyosidan kelib chiqib talqinni faraz qiladi, asarga o‘z munosabatini bildiradi. I.V.Gyotening fikricha, birorta odam boshqa birovni tugal tushuna olmaydi; hech kim o‘ylab aytayotgan so‘zlarini eshituvchi o‘sha odamdek aynan o‘ylamaydi. Suhbat, o‘qish har kimda har xil fikr uyg‘otadi. “Zero, badiiy tafakkurga ega o‘quvchining ayrim qarashlari muallif fikrlariga mos kelsa, shu moslik anglab olinadi, to‘liq tushunilmagan boshqa nuqtalar baribir ochiq qoladi”[4.181]. “Mukammal va tugal tahlilning bo‘lishi mumkin emasligi badiiy asar tahlilining birinchi tamoyilidir”[2.347]. Ya’ni, ba’zida muallifning niyatini o‘quvchi anglamay qolishi ham mumkin. O‘quvchi kashf etgan badiiy topilma esa, muallifning o‘ziga ham yangilik bo‘lishi mumkin.

Ulug‘ rus yozuvchisi V.G.Belinskiy Pushkin, Gogol va Lermontov ijodi to‘g‘risida fikr yuritganda[9.375-376], psixologik tahlilga katta e’tibor qaratadi. Yoki buyuk tanqidchi N.G.CHernishevskiy graf N.L.Tolstoy ijodi, xususan, “Anna Karenina” asari misolida psixologik tahlil muammosini keng doirada qamrab oladi.

Rus adabiyotshunosligida N.G.CHernishevskiy birinchi marotaba “psixologik tahlil” tushunchasini ishlatib, yo‘nalishlarini aniqlashga harakat qilgan bo‘lsa, akademik M.Xrapchenko psixologik tahlilning uchta - dinamik, tipologik va analitik printsiplarni kashf etdi. Uning belgilashicha, dinamik printsipda yozuvchi qahramonning ruhiy qiyofasini ochishda ko‘proq uning xatti-harakatlariga va qiliqlaridan ajramagan holda tasvirlashga harakat qiladi. Ba’zi asarlarda kishilarning ruhiy holatlari tasvirlanar ekan, yozuvchi ma’lum ma’noda “tuyg‘ular tafsilotini” chetda qoldiradi. Dinamik printsipda qahramon ichki kechinmalarini tasvirlash doimo qisqa, zarur bo‘lgandagina ifoda etiladi. Syujetning dinamik rivojlanishi bilan mustahkam bog‘langan holda olib boriladi. Ishtirok etuvchi shaxslarning ruhiy dunyosi asosan avtor nutqi bilan ochiladi yoki avtor remarkalari orqali ko‘z qarashlari, yuzdagi o‘zgarishlar, ovozidagi ohangni ta’kidlash bilan ishora qilinadi.

Psixologik tahlilning tipologik printsipida asarda ishtirok etuvchi shaxslarning ichki dunyosi ular mansub bo‘lgan ijtimoiy turmush tarzi bilan uzviy bog‘langan holda bayon qilinadi. Qahramonlar ma’lum darajada shakllangan ichki va tashqi qiyofasi bilan o‘zlari aloqador bo‘lgan muhitdan chiqqan bo‘ladilar. Bu muhit, holat va maishiy turmushning tipik belgilarini ifodalash uchun asar muallifi bayonga maishiy turmushning ikir-chikirlarigacha tasvir etadi. Ijodkor tomonidan tanlab olingan ma’lum detallar qahramonning tashqi muhit, undagi hayot tarzinigina emas, balki ular ruhiy qiyofasining o‘ziga xos xususiyatlarini, qiziqishi va intilishini ham ta’riflab beradi.

M.Lermontov “Zamonamiz qahramoni” asari bilan psixologik tahlilning yangi – analitik printsipini boshlab berdi. Bu printsipda “voqealar tafsiloti”ning tasviriga nisbatan “his-tuyg‘ular tafsiloti” tasviri birinchi o‘ringa chiqadi. Qahramonning ruhiy jarayoni, bu jarayonning betinim o‘zgaruvchanligi, fikrlar, hislar va kechinmalarning rivoji keng tahlil etiladi. Asar qahramonlarining kechinmalari faqat bayonchi tomonidan tahlil etilibgina qolmay, balki qahramonlarning o‘zi hayotni idrok etishi orqali o‘z his-tuyg‘ularini o‘zlari tahlil qiladilar. Adabiyotshunos H.Umurovning ta’kidlashicha, ushbu printsip XIX asr G‘arbiy Yevropa va rus adabiyotida Stern, Stendalь, Lermontov ijodida yuzaga kelgan bo‘lib, L.N.Tolstoy tomonidan rivojlantirildi. Natijada psixologik tahlilning “qalb dialektikasi” shakli kashf etildi[9.23].

O‘zbek romanchiligida birinchi bor A.Qahhorning “Sarob” romanida psixologizmning analitik printsipi yaqqol ko‘zga tashlanadi. A.Qahhor “Sarob” romanida qahramonning o‘z shaxsidagi qarama-qarshi fikrlar jangiga, xis-tuyg‘ular kurashiga asosiy diqqatini qaratadi. Qahramon qalbi kechinmasi – tasvir etilayotgan ijtimoiy muhitning har tomonlama real tasviriga olib keladi.

Bugungi kunda o‘zbek adabiyotshunosligining ilmiy-nazariy adabiyotlari va so‘nggi lug‘atida “psixologik determinizm”[6.532], “psixologik maktab”[7.237], “psixologik metod”[4.178], “psixologizm printsiplari”[8.49] kabi atamalarga duch kelamiz. Mualliflar tomonidan kerakli ilmiy fikrlar berilgan bo‘lsa-da, psixologik printsipning aynan o‘zbek adabiyotiga xos bo‘lgan (H.Umurovning “Adabiyotshunoslik nazariyasi” darsligida qisman berilganini hisobga olmasa) ilmiy-nazariy fikrlari berilmagan.

Milliy adabiyotshunosligimizda psixologik tahlil muammolari XX asrning 70-80 yillariga kelib badiiy asar tahlilida alohida tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganila boshlandi.

Badiiy asar qahramonlarining ruhiy kechinmalari, xarakter xususiyatlarini tahlil etish ko‘pchilik tadqiqotlarda yozuvchining uslubiy mahoratini tahlil qilish ma’nosida uchraydi. Ularning ba’zilaridagina

psixologik printsipning nazariy asoslari tadqiq etilgan. Bu masalada N.SHodiev, H.Umurov, Y.Solijonovning ilmiy-tadqiqot ishlarida ilgari surilgan fikrlar akademik Xrapchenko nazariy qarashlari bilan umumiylik kasb etadi. Lekin, adabiyotshunos H.Umurov uchchala printsipdan tipologik printsipni psixologizm formasi ekanligini, psixologizmning har xil formalarini (yo‘nalishlarini) printsip darajasiga ko‘tarish noo‘rin xulosalarga, chalkash fikrlarga olib kelishi mumkinligini ta’kidlaydi[9.26]. Darhaqiqat, xarakter namoyon bo‘lishi uchun, asarda qanday psixologik printsip ustuvor bo‘lishidan qat’iy nazar ijtimoiy muhit tafsilotlari yozuvchi niyatiga qarab qisman yoki batafsil tasvir etiladi, H.Umurovning ushbu fikrlariga qo‘shilgan holda qahramonning ijtimoiy hayotdagi xatti-harakati, kechinmalarini psixologizm yo‘nalishlaridan biri sifatida qaraymiz. Olimning fikricha, ba’zi asarlarda analitik va dinamik printsiplar parallel yonma-yon kelgan holda yangi sintetik printsipni kashf etadi[9.29]. Aynan bir voqelikni obrazlar dramatizmida talqin etilib, asar qahramonlaridan birining ruhiyatida qayta sintez etilishi shunday psixologik printsip paralelligini vujudga keltiradi. Masalan, “Qutlug‘ qon” romanida dehqonning bir yillik mehnatining suv tekinga ketishi, Yo‘lchining u haqda o‘ylab chiqargan xulosalari.

XULOSA. Bizning fikrimizcha, yuqorida ta’kidlangan printsiplar ham ko‘proq yozuvchining uslubiga xos xususiyatlardir. Psihologik tahlilda esa “Yozuvchi – matn – o‘quvchi” muammosi turar ekan, badiiy asarni psixologik jihatdan o‘rganishda quyidagi tamoyillar inobatga olinishi lozim:

***1. Psixologizm tabiatining murakkabligini hisobga olish;***

Psixologizmning etika-estetika, falsafa, ijtimoiy tarix, fiziologiya va boshqa sohalar bilan o‘zaro aloqadorligi, psixologik metodning biografik, sotsiologik, struktural, germenevtik tahlil metodlari bilan bog‘liklikda o‘rganish usullarini tadbiq etish.

***2. Muallif, xarakter (yoki matn), o‘quvchi munosabatlarining o‘zaro bog‘liqligi;***

Avvalambor, badiiy asar yaratishda muallifning niyati, asarning ramziy ma’nosi, muallif qanday shakl va vositalar asosida qahramon shaxsini yaxlit idrok etishga erishishi mumkin, asarning asosiy ziddiyatlari – konflikt holatlari, psixologik muhit - byurokratlik, keskinlik, tanglik, tajovuzkorlik kabi muammolarga javob izlash.

Tuyg‘ular, fikrlarni muallif o‘quvchiga qanday yetkazadi, qahramonning hissiyotlari va ichki kechinmalari, imo-ishoralar, fiziognomiya kabi holatlarning talqinini qahramonlar shaxsiyatida tahlil etish lozim.

O‘quvchi asarni o‘qir ekan, o‘ziga keraklicha estetik zavq oladi. Lekin tadqiqotchi muallif niyatini, asarning psixologik jarayonlarini anglamoqchi bo‘lsa matnlarni amaliy tahlil qilishda faol ishtirok etadi.

**Adabiyotlar:**

1. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – T.: Navoiy universiteti, 2018.
2. Yo‘ldoshev Q. O‘zbek adabiy tanqidi: antologiya. – T.:Turon-Iqbol, 2011.
3. Jo‘raqulov U.Hududsiz jilva. T.: Fan, 2006.
4. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. – T.:G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2018.
5. Belinskiy V.G. PSS v 13-tomax. – M., 1953-1974 gg. Tom 12.
6. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T.: O‘Zbekiston, 2002.
7. Quronov D., Z.Mamajonov, M.SHeralieva. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – T.: Akademnashr, 2010.
8. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. 49-bet.
9. Umurov H. Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi. – T.: Fan, 1983. 26-bet.
10. https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/1210919
11. Okilakhon Abdumalikovna Akhmadjonova, Dehqonova Maxsuma Shavkatovna, Sabirdinov Akbar G‘afurovich, S.A.Xo‘jaev, & H.Jo‘raev. (2022, May 1). CREATIVE WORLD. https://doi.org/10.5281/zenodo.6519223
12. Akhmadjonova, O. A. (2021). Symbolic And Figurative Images Used In The Novel “Chinar”. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(03), 389 -392.
13. Ahmadjonova, O. (2020, December). THE ARTISTIC SKILL OF THE CREATOR. In Конференции.
14. Akhmadjonova Okilakhon Abdumalikovna. “ТУҒИЛИШ” РОМАНИДА РАҲБАР ОБРАЗИ ПСИХОЛОГИЯСИ. Filologiya ta'limi masalalari: muammo va uning innovatsion yechimlari. https://doi.org/10.5281/zenodo.6582616

(Taqrizchi: A.Mamajonov − filologiya fanlari doktori, professor)